O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan ro'yxatga olindi	**Institut Kengashining №1-sonli qarori bilan TASDIQLANGAN**
№ 281400272	
2014 yil 20 august	**(2014 yil 22 avgust)**

DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI

ISHCHI O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi:	5231300	–	Pensiya ishi

Toshkent-2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Sh. Hamdamov – Toshkent moliya instituti "G'aznachilik ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi

B. Nurmuhamedova – Toshkent moliya instituti "G'aznachilik ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A. Norqulov - Toshkent moliya instituti "Moliya" kafedrasi dotsenti, i.f.n.(ichki).

Sh. Mansurov- O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari (tashqi).

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 10 iyun dagi 20-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri **A. Botirov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Byudjet hisobi va davlat jamg'armalari fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 12 iyun dagi 11 -sonli qarori).

Fakultet dekani **SH. Allayarov**

Kelishildi:
O'quv ishlari bo'yicha prorektor **A.Karimov**

KIRISH

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Davlat pensiya ta’minoti” fanini o’qitishdan maqsad – talabalarga davlat pensiya ta’minoti tizimi haqida nazariy bilimlar berish, ularda amalga oshirilayotgan islohotlarning bugungi bosqichida davlat pensiya ta’minoti bo’yicha asosiy bilimlarni shakllantirish va ko’nikmalarni hosil qilishdan iborat. Ushbu fanni o’rganish jarayonida talabalar pensiya ta’minoti nazariyasi va amaliyotiga tegishli bilim, uquv va ko’nikmalarga ega bo’lishadi. Talabalar pensiya ta’minotiga oid qonunchilikdagi yangiliklardan, pensiya ta’minotini tashkil etish amaliyotidagi o’zgarishlardan xabardor bo’lishadi.

“Davlat pensiya ta’minoti” fanini o’qitish quyidagi vazifalarni o’z oldiga qo’yadi:

– O’zbekiston Respublikasi pensiya ta’minotinining mohiyati va vazifalarini o’rganish;

– pensiya ta’minoti tizimini o’rganish;

– davlat pensiya ta’minotining tashkiliy va qonuniy-huquqiy asoslarini o’rganish;

– davlat pensiya ta’minotining moliyaviy asoslarini o’rganish

Har bir mavzu yakunida ta’lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo’llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o’quv-uslubiy majmua(O’UM)da bayon etilgan.

1.2 Fanni o’zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

- pensiya ta’minoti organlari faoliyatini tashkil etish;
- pensiya ta’minoti moliyaviy resurslarining operativ, joriy va istiqbolli rejalashtirishni tashkil etish, pensiya fondlari budjetlarining loyihasini tayyorlash;
- fuqarolarning pensiya ta’minoti holatini tahlil etish;
- pensiya ta’minotiga yo’naltirilgan mablag’larning manbalari va ishlatish yo’nalishlariga ko’ra dinamikasini tahlil qila olish malakalariga ega bo’ladi.

1.3 Fanning o’quv rejasidagi fanlar bilan bog’liqligi

Mazkur fanni o’rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta’lim standartlarida ko’zda tutilgan iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo’ladi.

1.4. Fanni o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

"Davlat pensiya ta'minoti" fanining *ma'ruza mashg'ulotlarida* ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;
- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash):

Ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

T –jadval:

Bita kontseptsiya (ma'lumot)ning jihati o'zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali:

Tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada kilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

"Davlat pensiya ta'minoti" fanining amaliy mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol

qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakatlar algoritmga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Keys stadi.:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

Shuningdek "Davlat pensiya ta'minoti" fanining amaliyot mashgulotlarida kompyuter dasturlaridan (Micrasoft Excel, Micrasoft PowerPoint), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, teslar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

I. “Davlat pensiya ta’minoti” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga 5231300 – “Pensiya ishi” yo’nalishi uchun ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti:

	Fandan o’tiladigan mavzular	jami soatlar	shu jumladan		
			ma’ruza	amaliy	mustaqil ta’lim
1.	“Davlat pensiya ta’minoti” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	8	2	2	4
2.	Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta’minotining zarurligi va ahamiyati	16	6	4	6
3.	Pensiya ta’minoti tizimining shakllanishi	18	8	4	6
4.	Pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosati.	18	6	4	8
5.	Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari.	12	4	2	6
6.	Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari.	20	8	4	8
7.	Davlat Pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi organlar, ularning maqsadi va vazifalari.	18	8	4	6
8.	Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash.	20	8	4	8
9.	Davlat pensiya ta’minoti tizimidagi pensiyalarning turlari	22	10	4	8
10.	Chet mamlakatlar pensiya tizimining o’ziga xos xususiyatlari	24	12	4	8
	Jami	**176**	**72**	**36**	**68**

2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

2.1.1. "Davlat pensiya ta'minoti" fanining predmeti, maqsad va vazifalari (2 soat)

"Davlat pensiya ta'minoti" fanining ahamiyati. Fanning predmeti, asosiy mazmuni va vazifalari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *insert jadvali, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, A6, Q10, Q13]

2.1.2. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotining zarurligi va ahamiyati (6 soat)

Pensiya ta'minotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni. Pensiya ta'minoti tizimlari, ularning o'ziga hos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A3, A6, Q 8, Q 9, Q10, Q12]

2.1.3. Pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi (8 soat)

Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish bosqichlari. Mustaqillik yillaridan oldingi O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotining holati. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimidagi o'zgarishlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A3, A5, Q 8, Q 9, Q10, Q11]

2.1.4. Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati (6 soat)

Davlat ijtimoiy siyosatining ahamiyati va uning asosiy yo'nalishlari. Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosatining mazmuni va vazifalari. Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish vositalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, Q 9, Q10, Q13]

2.1.5. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari (4 soat)

Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirishda davlat boshqaruv

organlarining o’rni. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish metodlari. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish sub’ektlari va ob’ektlari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, Q 9, Q10, Q12]

2.1.6. Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari (8 soat)

Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun, mazmuni va ahamiyati. “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun, mazmuni va ahamiyati. Davlat pensiya ta’minotini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*

[A1, A2, A4, Q 9, Q10, Q11, Q12]

2.1.7. Davlat Pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi organlar, ularning maqsadi va vazifalari (8 soat)

Davlat pensiya ta’minotini boshqarish organlari va ularning guruhlanishi. Davlat Pensiya ta’minotini istiqbolini belgilash va uni shakllantirishda ishtirok etuvchi organlarning asosiy vazifalari. Davlat pensiya ta’minoti ijrosini amalga oshiruvchi organlar va ularning asosiy vazifalari. Davlat pensiya ta’minoti hisobotini amalga oshirish organlari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*

[A1, A3, A4, Q 7, Q10, Q11, Q12]

2.1.8. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash (8 soat)

Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlashda xo’jalik yurituvchi sub’ektlarining o’rni. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlashda jismoniy shaxslarning tutgan o’rni. Davlat pensiya fondini mablag’ bilan ta’minlashning asosiy manbalari. Yagona ijtimoiy to’lov, uning mazmuni va mohiyati. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi fuqarolarning Davlat pensiya fondi mablag’larini shakllantirish faoliyati.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*

[A1, A3, A4, Q8, Q10, Q11, Q12]

2.1.9. Davlat pensiya ta’minoti tizimidagi pensiyalarning turlari (10 soat)

Davlat pensiyalarining turlari. Yoshga doir pensiyalar va ularning mazmuni. Nogironlik pensiyalari, ularning mazmuni. Fuqarolarning boquvchisini yo’qotganlik pensiya ta’minotining mazmuni Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*
[A1, A3, A4, Q7, Q10, Q11, Q13]

2.1.10. Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari (12 soat)

Chet mamlakatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari. Rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*
[A1, A3, A4, Q8, Q10, Q11, Q12]

2.2. AMALIY MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

2.2.1.“Davlat pensiya ta'minoti” fanining predmeti, maqsad va vazifalari (2 soat)

“Davlat pensiya ta'minoti” fanining ahamiyati. Fanning predmeti, asosiy mazmuni va vazifalari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *insert jadvali, toifali jadval, kontseptual jadval.*
[A3, A6, Q8, Q 9, Q10, Q13]

2.2.2. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotining zarurligi va ahamiyati (4 soat)

Pensiya ta'minotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni. Pensiya ta'minoti tizimlari, ularning o'ziga hos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*
[A3, A6, Q 8, Q 9, Q10, Q13]

2.2.3. Pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi (4 soat)

Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish bosqichlari. Mustaqillik yillaridan oldingi O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotining holati. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimidagi o'zgarishlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*
[A3, A6, Q8, Q 9, Q10, Q12]

2.2.4. Pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosati (4 soat)

Davlat ijtimoiy siyosatining ahamiyati va uning asosiy yo’nalishlari. Pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosatining mazmuni va vazifalari. Pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish vositalari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, Q 9, Q10, Q13]

2.2.5. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari (2 soat)

Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining o’ziga xos xususiyatlari. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining o’rni. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish metodlari. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish sub’ektlari va ob’ektlari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, Q 9, Q11, Q12]

2.2.6. Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari (4 soat)

Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun, mazmuni va ahamiyati. “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun, mazmuni va ahamiyati. Davlat pensiya ta’minotini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*

[A1, A3, A4, Q 9, Q10, Q11, Q13]

2.2.7. Davlat Pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi organlar, ularning maqsadi va vazifalari (4 soat)

Davlat pensiya ta’minotini boshqarish organlari va ularning guruhlanishi. Davlat Pensiya ta’minotini istiqbolini belgilash va uni shakllantirishda ishtirok etuvchi organlarning asosiy vazifalari. Davlat pensiya ta’minoti ijrosini amalga oshiruvchi organlar va ularning asosiy vazifalari. Davlat pensiya ta’minoti hisobotini amalga oshirish organlari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*

[A1, A3, A4, Q 9, Q10, Q11, Q13]

2.2.8. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash (4 soat)

Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlashda xo’jalik yurituvchi sub’ektlarining o’rni. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlashda jismoniy shaxslarning tutgan o’rni. Davlat pensiya fondini mablag’ bilan ta’minlashning asosiy manbalari. Yagona ijtimoiy to’lov, uning mazmuni va mohiyati.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning Davlat pensiya fondi mablag'larini shakllantirish faoliyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*
[A1, A3, A4, Q 9, Q10, Q11, Q12]

2.2.9. Davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalarning turlari (4 soat)

Davlat pensiyalarining turlari. Yoshga doir pensiyalar va ularning mazmuni. Nogironlik pensiyalari, ularning mazmuni. Fuqarolarning boquvchisini yo'qotganlik pensiya ta'minotining mazmuni Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*
[A1, A3, A4, Q 9, Q10, Q11, Q12]

2.2.10. Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari (4 soat)

Chet mamlakatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari. Rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, BBB jadvali.*
[A1, A3, A4, Q 9, Q10, Q11, Q13]

3. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, mahalliy budjetlar faoliyatini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'lim talabalar uchun majburiy o'quv mashg'uloti hisoblanadi va rejali xususiyatga ega. Mustaqil ta'limning mavzular talabalar uchun mustaqil o'rganishlari shart bo'lgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarining mustaxkamlash va kengaytirishga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishga hamda dunyoqarashini yana ham kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma'ruzalar mavzulari, amaliy, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari, talabalar ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida, ilmiy maqolalar tayyorlashlari, hamda ilmiy amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin.Taqdimot va ma'ruzalar kafedra tomonidan belgilab berilgan hajmda bo'lishi kerak.

“Davlat pensiya ta’minoti” fani bo’yicha mustaqil ta’limining mazmuni

№	Fan bo’yicha mazmuni	Mustaqil ta’limga oid bo’lim va mazular	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari
1.	“Davlat pensiya ta’minoti” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	Davlat pensiya ta’minoti tizimidagi islohotlar, ularning asosiy yo’nalishlari	referat, taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
2.	Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta’minotining zarurligi va ahamiyati	Ijtimoiy ta’minot shakllari	taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
3.	Pensiya ta’minoti tizimining shakllanishi	XX asrda sivilizatsiyalashgan ijtimoiy ta’minot tizimlarining qaror topishi va shakllanishi	taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
4.	Pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosati.	XX asrda sivilizatsiyalashgan ijtimoiy ta’minot tizimlarining qaror topishi va shakllanishi	referat, taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
5.	Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari.	Pensiya ta’minoti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi, uning dastak va vositalari	referat, taqdimot, keys-stadi	mavzu yakunida
6.	Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari.	O’zbekiston Respublikasida Davlat pensiya ta’minotining huquqiy asoslari.	klaster, taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
7.	Davlat Pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi organlar, ularning maqsadi va vazifalari.	O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini boshqaruvchi organlar.	referat, taqdimot, keys-stadi	mavzu yakunida
8.	Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash.	Davlat pensiya ta’minotini moliya-lashtirish manbalari.	referat, taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida
9.	Davlat pensiya ta’minoti tizimidagi pensiyalarning turlari	Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlari va xarajatlari, tarkibi va tuzilishi	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg’ulot davomida

10.	Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari	Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari modellari	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida

3.2. KURS ISHLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

"Davlat pensiya ta'minoti" fani bo'yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo'yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdir. Kurs ishi "Davlat pensiya ta'minoti" fani rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak.

Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo'yilgan savollarning o'zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta'minlash. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash talabaga kurs ishining maqsadi va vazifalarini aniq qo'yish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to'g'ri tanlashga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini to'g'ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning ilmiy jihatdan etukligi hamda "Davlat pensiya ta'minoti" fani bo'yicha chuqur bilimga va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlagan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda davlat pensiya ta'minotini tashkil qilishning o'ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini va amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda pensiya siyosatining xususiyatlarini, belgilangan muammolarning echimini topish yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
- kurs ishida chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- kurs ishi bo'yicha to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi;
- talaba tomonidan fikrning ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilinishi;
- qo'yilgan talablar bo'yicha kurs ishining rasmiylashtirilishi.

Kurs ishi o'quv rejaga ko'ra 5231300 – Pensiya ishi ta'lim yo'nalishida nazarda tutilgan.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

1. Davlat pensiya ta'minoti tizimining mohiyati va ahamiyati
2. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini boshqaruvchi organlar.
3. O'zbekistonda Davlat pensiya ta'minotining huquqiy asoslari.
4. Davlat pensiyalari turlarining klassifikatsiyasi.
5. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotining zarurligi va ahamiyati
6. Pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi
7. Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati.
8. Davlat pensiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari.
9. Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari.
10. Davlat Pensiya ta'minotini amalga oshiruvchi organlar, ularning maqsadi va vazifalari.
11. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash.
12. Davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalarning turlari
13. .Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari
14. Jahon amaliyotida pensiya ta'minotini boshkarish.
15. Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslari barqarorligini ta'minlovchi omillar.
16. Hududiy pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni takomillashtirish.
17. G'aznachilik tizimida Pensiya jamg'armasi ijrosini tashkil qilish.
18. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini boshqarish tizimining vazifalari va funktsiyalari.
19. Davlat pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalari.
20. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti yuzasidan huquq va majburiyatlari.
21. Pensiya ta'minotini boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish.
22. Davlat pensiya ta'minotini tartibga solish usullari.
23. Pensiya ta'minotidagi islohotlarni mamlakatdagi tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish
24. Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish masalalari
25. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish

REYTING BAHOLASH TIZIMI

4.1. Reyting nazorati jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr xaftalari																		Attestatsiya	Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39
ON	0-17									0-18										0-35	
∑ (JN+ON)	0-70																			0-70	
YaN																			0-30	0-30	0
Jami	0-70																		0-30	0-100	56

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

Reyting nazorati turlari	Semestr xaftalari																		Attestatsiya	Ballar	Saralash ballari
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39
ON	0-17									0-18										0-35	
∑ (JN+ON)	0-70																			0-70	
YaN																			0-30	0-30	0
Jami	0-70																		0-30	0-100	55

**Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.*

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda magistrantning o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida 0-2 (yoki har hafta bo'yicha 0-6) ballgacha jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har birida 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. ∑ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

∑(JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		∑ (JN+ON)
	JN	ON	
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida (0-30) ballgacha belgilan mezon asosida yoki majmuali shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish

tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli ko'rsatgichlarni shaxsiy kompyuterda bajarish, diagrammalarni, elektron jadvallarni Excel dasturi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etish mumkin.

"Davlat pensiya ta'minoti" fanini o'rganishda talaba amaliy yordam tariqasida pensiya tizimi faoliyati yakunlariga oid hisobot materiallari, pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlarining Nizomlari, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari yuzasidan rejaviy va hisobot ma'lumotlari va boshqa amaliy materiallar, tegishli chizmalar, jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar bilan ta'minlanadi.

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" – T.: O'zbekiston. 2013 y. 32 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2013 y. – 276 bet.
3. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 202 b.
4. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. –T.: "Adolat". 2009. - 172 b.
5. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:Infocom. 2010.
6. Tuxtarova. M. Pensionnie obespecheniya grajdan. Spravochnik dlya naseleniya «NORMA» 2010g.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar

7. Vahobov A., Malikov T. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010, 595 b.
8. Malikov T., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.
9. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. "Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi". – T.: "IQTISOD-MOLIYA".2010 y.
10. Malikov T., Jalilov T., Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Akademnashr, 2011, 472 b.
11. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budjet siyosati / G.A. Kosimova. - T.: Toshkent moliya instituti, 2004. – 152 b.
12. Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – T.: Sharq, 2003 – 320 b.
13. Internet saytlari:

    www.mf.uz
    www.gov.uz
    www.lex.uz
    www.stat.uz
    www.budget.ru

www.uzreport.co
www.undp.uz
www.publicfinance.uz